

XITOIY OG‘ZAKI NUTQIDA UCHRAYDIGAN TURG‘UN
BIRIKMALAR VA ULARNING TARJIMASI



<https://doi.org/10.24412/2181-1784-2023-21-336-341>

Badalbaev Dilshod Farxod o‘g‘li
TDSHU Xitoyshunoslik fakulteti,
Xitoy filologiyasi kafedrası o‘qituvchisi
dilixiade@gmail.com
+998909293940

Annotatsiya: Ushbu maqolada bevosita xitoy og‘zaki tilida do‘stlar va boshqa yaqin insonlar o‘rtasida qo‘llaniladigan turg‘un birikmalar tahlil qilinadi. Bundan tashqari maqolada og‘zaki nutqda turg‘un birikmalarni qo‘llash usullari borasida ham tavsiyaviy fikr va mulohazalar ham beriladi. Mazkur muammo dialoglarda uchraydigan birikmalarni to‘g‘ri tarjima qilishga ham bag‘ishlanadi.

Kalit so‘zlar: turg‘un birikma, konstruksiya, nutq, maqto‘v, og‘zaki nutq.

Аннотация: В данной статье непосредственно анализируются устойчивые союзы, используемые между друзьями и другими близкими людьми в разговорном китайском языке. Кроме того, в статье также даются рекомендации и комментарии по способам употребления устойчивых сочетаний в устной речи. Эта задача также посвящена правильному переводу сочетаний, встречающихся в диалогах.

Ключевые слова: фиксированное сочетание, конструкция, речь, похвала, устная речь.

Annotation: This article directly analyzes the fixed conjunctions used between friends and other close people in spoken Chinese. In addition, the article also gives recommendations and comments on the methods of using fixed combinations in oral speech. This problem is also devoted to the correct translation of the combinations found in dialogues.

Keywords: fixed combination, construction, speech, praise, oral speech.

Og‘zaki nutq tilning asosi va manbai hisoblanib, u tilning eng real va faol qismi sanaladi. Biroq, xitoy og‘zaki nutqning o‘ziga xos xususiyatlari va ayrim obyektiv shart-sharoitlarning chegaralanganligi tufayli og‘zaki nutq bo‘yicha olib borilayotgan hozirgi tadqiqotlar nisbatan orqada qolmoqda desak to‘g‘ri bo‘ladi. Bu holat nazariy yangilik va uslubiy yutuqlarni talab qiladi. [10.1]

Xitoy tili xitoy xalqining ona tilisi va dunyodagi eng keng tarqalgan tillardan biridir. Xitoy tili kundalik hayotda, biznes aloqalarida, akademik tadqiqotlarda, madaniy meros va boshqa sohalarda keng qo‘llaniladi. Xitoy tilidan foydalanishning barcha jihatlari orasida og‘zaki til eng to‘g‘ridan-to‘g‘ri va hayotga mos ifoda shakli

bo‘lib, uni tadqiq qilish har doim tilshunoslikning eng muhim nuqtalaridan biri bo‘lib kelgan. [11.23]

Jamiyatning uzluksiz rivojlanishi va o‘zgaruvchan muhit bilan zamonaviy so‘zlashuv xitoy tili ham yanada xilma-xil va rang-barang xususiyatlarni ko‘rsatdi. Zamonaviy og‘zaki xitoy tilini o‘rganish nafaqat xitoy tilini bilish darajasini oshirishga yordam beradi, balki keng jamoatchilikning zamonaviy jamiyatga yaxshiroq integratsiyalashuviga ko‘maklashadi.

Zamonaviy xitoy tilidan foydalanishning asosiy usuli sifatida og‘zaki ifoda aniq xususiyatlarni ko‘rsatadi. Avvalo, zamonaviy so‘zlashuv xitoy tilining til uslubi ko‘proq tasodifiy bo‘lib, an’anaviy madaniyat bilan bog‘lanmaydi va ifodalashning erkin va moslashuvchan usuliga ega. Ikkinchidan, zamonaviy xitoy tilida shaxsiylashtirish va his-tuyg‘ularga ko‘proq e’tibor beriladi. Uchinchidan, xitoy tilida chetdan kirib kelgan so‘zlar ko‘proq qo‘llaniladi. Ko‘pgina xorijiy so‘zlar xitoycha iboralarni yanada boyitib, yangi muammolarni keltirib chiqarmoqda. [8.23]

Og‘zaki nutqdagi turg‘un birikmalar haqida so‘z yuritishdan oldin, turg‘un birikma tushunchasiga to‘xtalib o‘tsak maqsadga muvofiq sanaladi. Tilshunos-olimlar turg‘un so‘z birikmalarini idiomatik ma’noli frazeologik birlik kabi semantik hodisa tarzida bayon etadilar. Turg‘un birikma komponentlarining sintaktik munosabati talqini lozim darajada tadqiq etilmagan. Tilshunoslikda turg‘un so‘z birikmalari noidiomatik qurilma sifatida e’tirof etilib, ularni frazeologik birliklardan farqli jihatlari izohlanadi. Darhaqiqat, turg‘un so‘z birikmalari, shu jumladan, frazeologik birliklar nafaqat semantik, balki sintaktik hodisa ekanligi, turg‘un so‘z birikmalari erkin birikmalardan farqli ravishda gapning qurilish materiali ekanligi e’tirof etiladi. [3.1]

Xitoy og‘zaki nutqidagi ma’lum bir sodda gap yoki turg‘un birikma ko‘rinishidan tushunarli bo‘ladi-yu, lekin asl ma’nosini chiqarish biroz mushkul sanaladi. Bunday gaplarni, albatta, kerakli kitoblar yordamida tahlil qilgan holda anglab olamiz. Masalan, ma’lum bir gapni yoki dalilni tasdiqlab, odamlar shunga ahamiyat berishlari kerakligini bildirish uchun “你还别说” (to‘g‘ridan-to‘g‘ri tarjimasini: “sen gapirma”) iborasini ishlatishadi. Xitoy tilini o‘rganuvchi esa bu gapni eshitib ajablanishi tabiiy, albatta, va u ichida “men nima dedim, nima uchun gapirmasligim kerak” deb o‘ylaydi. Lekin bu birikma qarshi tomonning gapini ma’qullab, to‘g‘ri aytding degan ma’noni anglatish uchun xizmat qiladi.

Ana endi, biz quyida bir qancha turg‘un birikmalarga ahamiyat qaratamiz. Bu keltiradigan turg‘un birikmalarimiz asosan do‘stlar, yaqinlar o‘rtasida ishlatiladigan birikmalar hisoblanib, ishlatilish doirasi nisbatan erkin sanaladi. Bunday birliklarni rasmiy joylarda yoki ma’lum bir munosabati uzoq insonlarga nisbatan ishlatadigan bo‘lsangiz, noqulay vaziyatlarga tushib qolishingiz hech gap emas.

别逗了 **biédòule**

Bu birlik ishonchsizlikni bildirib, qarshi tomonning fikri noto‘g‘ri ekanligini tasdiqlaydi. “Qo‘ysangchi”, “hazillashma” deb tarjima qilinadi. Ushbu birlik ko‘proq og‘zaki nutqda do‘stona muloqotda qo‘llaniladi.

Misollar:

1. 甲：昨天晚上我在酒吧看见你男朋友了。
乙：别逗了，我们晚上一直在一起的，你看错人了吧？
2. 甲：听说公司要给咱们加薪。
乙：别逗了，老板给咱们加薪？除非太阳从西边出来。 [7.45]

Bu ikkala misolda ham suhbatdosh bir-biriga yaqin do‘st ekanligini ko‘rsak bo‘ladi.

还说呢 hái shuō ne

Ushbu birlik ritorik so‘roq gap bo‘lib, “gapirma” deb tarjiam qilsak bo‘ladi. Birlik orqali muammoning sababi o‘zi emasligiga urg‘u beradi. Bundan tashqari, azob chekkanlik ma‘nosini anglatib, asosan, yaqin munosabatga ega odamlar o‘rtasida ishlatiladi.

Misollar:

1. 甲：你身上怎么弄得这么脏啊？
乙：还说呢！今天下雨，我没带伞，往回跑的时候又被汽车溅了一身泥？
2. 甲：你怎么考得那么差？
乙：还说呢，都是因为你，昨天跟我聊得那么晚，我都没好好复习。 [9.58]

Bu birlikda ham suhbatdoshlar bir-birini bemalol tanqid qilib, unga javob berayotganligini ko‘rsak bo‘ladi.

看你说的 kàn nǐ shuō de

Bu birlik qarshi tomonning gapi haqiqatga unchalik ham mos emasligini bildiradi. “Gapingni qara-yu” deb tarjima qilinadi. Tanishlar yoki do‘stlar davrasida ishlatilib, evfemizm ko‘rinishidagi turg‘un birikma sanaladi. Bundan tashqari qarshi tomon uzr yoki minnatdorchilik bildirgan paytda mulozamatni ifodalab keladi.

Misollar:

1. 甲：听说你特别爱吃羊肉串，一次能吃五十串。
乙：看你说的，我哪儿吃得了那么多啊。
2. 甲：给你们添这么多麻烦，真是过意不去。
乙：看你说的，咱们是邻居，互相帮忙不是应该的吗？ [7.123]

没羞 méixiū

Ushbu birlik biror-bir shaxsga uyalish kerakligini uqtirishni bildiradi. “Uyalmaysanmi”, “uyat yo‘qmi”, “yuzing bormi” deb tarjima qilinadi. Yaqinlik ma‘nosida ishlatilib kelinadi.

Misollar:

1. 甲：那个歌星长得真帅！也不知道他有没有女朋友？
乙：没羞！你想男朋友想疯了？

2. 这样的话也说得出口，他可真没羞。

3. 甲：妈妈，抱。

乙：你都三岁了，还让妈妈抱？没羞！ [9.126]

Misollar orqali yaqin do‘st dugonalar tanqid ma‘nosida bir-biriga nisbatan bu birlikni ishlatishayotganligini ko‘rsa bo‘ladi.

美得你 měi dé nǐ

Bu birlik qarshi tomonning o‘ylagani xomxayol ekanligini, amalga oshmasligi mumkinligini bildiradi. “Xomxayol surma” deb tarjima qilinadi. Mazah qilish o‘rnida ham ishlatilib, odatda yaqin tanishlar orasida qo‘llaniladi.

Misollar:

1. 甲：这个花瓶真漂亮，送给我得了。

乙：美得你，这可是个古董。

2. 甲：我就想少干活儿，多拿钱。

乙：美得你！这种工作哪儿找去呀？ [8.234]

说老实话 shuō lǎoshí huà

Kirish so‘zi bo‘lib, odatda aslida so‘zlashni istamagan yoki yaxshi bo‘lmagan gapni aytishdan oldin keladi. “Rostini aytadigan bo‘lsam” deb tarjima qilinadi. Ishongan yaqin odamlariga nisbatan qo‘llaniladi.

Misollar:

(1) 说老实话，我挺讨厌那个主任的，说话老是不阴不阳的。

(2) 这工作这么辛苦，说老实话，我真不想干了。

无所谓 wúsuǒwèi

Bu birlik hech qanday ishi bo‘lmasligi va qarshi tomonning ixtiyoriga qo‘yib berishni bildiradi. “Farqi yo‘q” deb tarjima qilinadi.

Misollar:

1. 甲：周末爬山，你说星期六去好还是星期天去好？

乙：无所谓，哪天都行。

2. 选专业是很重要的事，你老说“无所谓”怎么行呢？ [9.156]

说这话可就见外了 shuō zhè huà kě jiù jiàn wài le

Ushbu birlik biror-bir shaxs gapirayotgan mahalida mulozamat bilan o‘zini begona olib gapirishini bildiradi. “Begonalardek gapirasan-ey” deb tarjima qilinadi. Birovdan uzr so‘rash yoki minnatdorchilik izhor etish o‘rnida ham ishlatiladi bo‘ladi.

Misollar:

1. 甲：我得好好请你吃顿饭，谢谢你帮了我的大忙。

乙：说这话可就见外了，咱们是老同学，不用这么客气。

2. 甲：小高说上回的事是他不好，不好意思见你，让我替他向你道歉呢。

乙：嗨，说这话可就见外了，都是同事，有点儿小矛盾不是太正常了吗？ [7.89]

咱俩谁跟谁呀 zán liǎ shei gēn shei ya

Bu birlikni ikkala tomonning munosabati yaxshi ekanligini, ular o‘rtasida “seniki, meniki” yo‘qligini bildiradi. Asosan, yaqin do‘stlar orasida ushbu ibora qo‘llaniladi, aksincha, rasmiy uchrashuvlarda yoki mehmon va katta odamlarga nisbatan esa foydalanilmaydi.

Misollar:

1. 甲：这次你帮了我这么大忙，真得好好谢谢你呀。
乙：谢什么，咱俩谁跟谁呀。
2. 甲：生意上的事我都交给你了，你可别害我呀。
乙：放心吧，咱俩谁跟谁呀，我能害你吗？
3. 甲：怎么能让你一个人付钱呢。
乙：咱俩谁跟谁呀，这次算我请你吧。 [8.132]

这话说得 zhè huà shuō dé

Ushbu birlik biror-bir odamning gap-so‘zi holatga mos kelmaganligini bildiradi. “Bu nima degan gap” deb tarjima qilinadi. Ba’zida muloyimlik bilan javob berish uchun qo‘llaniladi. Bundan tashqari, odatda o‘rtoqlar orasida erkin qo‘llaniladi.

Misollar:

1. 甲：这孩子长得怎么像个小老头？
乙：这话说得！刚出生的孩子都这样。
2. 甲：你帮我这么大忙，叫我怎么感谢你呢？
乙：这话说得！邻居之间帮帮忙还不应该吗？ [9.163]

这是什么话 zhè shì shénme huà

Bu birlik biror-bir odam bunday demasligi kerak ekanligini bildiradi. “Bu nima deganing?” deb tarjima qilinadi. Ba’zida yaqin do‘stlar orasida erkin tarzda qo‘llaniladi. “什么话” desa ham bo‘ladi. Bundan tashqari qoniqmaslik yoki savol ma’nosida keladi.

Misollar:

1. 甲：他不是“卫生标兵”吗？以后厕所就让他打扫好了。
乙：这是什么话！搞好环境卫生是我们大家的事。
2. 甲：我的孩子太淘气，到谁家都闹得天翻地覆，所以我没带他来。
乙：这是什么话，小孩儿哪有不淘的。
3. 甲：孩子做这种工作，不是低人一等吗？
乙：什么话！社会分工不同，没有高低贵贱之分。 [9.201]

Xulosa qilib aytganda, zamonaviy xitoy tili bo‘yicha izlanishlar olib borish orqali xitoy tilini modernizatsiya qilishga, hamda xitoy tilini butun dunyo bo‘ylab ommalashtirishga ulkan hissa bo‘lib qo‘shilishi mumkin. Xitoy og‘zaki nutqida hali juda ham ko‘p tatqiq qilinishi lozim bo‘lgan masalalar talaygina. Turg‘un birikmalar tarkibida kelayotgan barcha iyerogliflarning semantik ma’nolarini bilsakda, lekin ular turg‘un birikmalar tarkibida kelganda umumiy boshqa ma’noni berishini mazkur maqolada misollarda ko‘rib chiqdik. Izlanishimiz orqali bir qancha birliklarni o‘z

o‘rnida qo‘llamslik yoki xato qo‘llash hollari og‘zaki nutqda ko‘plab muammolar keltirib chiqarishini aniqladik.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR (REFERENCE)

1. Abduazizov A. Tilshunoslik nazariyasiga kirish. – Toshkent: Sharq, 2013.
2. Hojiev. A. Tilshunoslik terminlarining izohli lug‘ati. – T: O‘zbekiston Milliy Entsiklopediyasi, 2002.
3. Маматов А. Фразеологик бирликлар ва турғун бирикмалар деривацияси тадқиқи . Журнал иностранных языков и лингвистики, 4(9) (2021).
4. Sultanova L.A. Xitoy tili leksikologiya. – Toshkent, 2015.
5. Семенов А.Л. Лексика китайского языка. – Москва: Восток-Запад, 2005.
6. [O‘zME](#). Birinchi jild. Toshkent, 2000-yil
7. 汉俄大辞典，北京语言大学，2008年
8. 黄伯荣 廖序东.现代汉语[M].北京：高等教育出版社，2002
9. 刘德联，刘晓雨“汉语口语常用句式例解”北京 2009年
10. 郑娟曼，汉语口语研究与构式语法理论；暨南学报(哲学社会科学版) 2012年第1期
11. 张斌.现代汉语[M].上海：复旦大学出版社，2002.)
12. <http://www.baidu.com/> (XXR maxsus qidiruv sayti)
13. <http://www.cdmd.cnki.com.cn/> (XXR ilmiy tadqiqotlar sayti)